



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvoyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish...	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

multiplikativ ta’siri ushbu sohalarni strategik rivojlantirish zarurligini ko’rsatadi. Ekonometrik tahlil yoshlar tadbirkorligida tarmoqlararo tarkibning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Umuman olganda, tadqiqot Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash hududiy iqtisodiy rivojlanish, bandlik va iqtisodiy faollikni oshirishda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Kelgusida ishlab chiqarish va innovatsion tarmoqlarga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yoshlar tadbirkorligining barqaror o‘shirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development*. — Cambridge: Harvard University Press, 1934.
2. Drucker P. F. *Innovation and Entrepreneurship*. — New York: Harper & Row, 1985.
3. Hirschman A. O. *The Strategy of Economic Development*. — New Haven: Yale University Press, 1958.
4. Naudé W. *Entrepreneurship and Economic Development: Theory, Evidence and Policy*. — *IZA Discussion Paper*, No. 7507, 2013.
5. OECD. *Youth Entrepreneurship and Inclusive Growth*. — Paris: OECD Publishing, 2017.
6. Abdullayev A., Karimov B. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning institutsional asoslari. — *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 2021, №4.

**UDK:336.14**

**MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING BARQARORLIGINI TA’MINLASH  
YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ДОХОДОВ МЕСТНЫХ  
БЮДЖЕТОВ**

**DIRECTIONS FOR ENSURING THE SUSTAINABILITY OF LOCAL BUDGET  
REVENUES**

**Mamajonov Lazizbek Azamjonovich**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur ilmiy maqolada mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish manbalari, ularning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni hamda daromadlar barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy soliqlar va yig‘imlarning samaradorligini oshirish, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish orqali mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirish yo‘nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari mahalliy moliya tizimini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** mahalliy byudjet, byudjet daromadlari, daromadlar barqarorligi, mahalliy soliqlar, byudjetlararo munosabatlar, moliyaviy mustaqillik.

В данной научной статье рассматриваются вопросы обеспечения устойчивости доходов местных бюджетов. В ходе исследования проанализированы источники формирования доходов местных бюджетов, их роль в социально-экономическом развитии территорий, а также факторы, влияющие на стабильность доходной базы. Обоснованы направления повышения устойчивости доходов местных бюджетов за счет повышения эффективности местных налогов и сборов, совершенствования межбюджетных отношений и укрепления

финансовой самостоятельности регионов. Результаты исследования могут быть использованы в практике управления местными финансами.

**Ключевые слова:** местный бюджет, доходы бюджета, устойчивость доходов, местные налоги, межбюджетные отношения, финансовая самостоятельность.

This scientific article examines the issues of ensuring the sustainability of local budget revenues. The study analyzes the sources of local budget revenues, their role in the socio-economic development of regions, and the key factors affecting revenue stability. The paper substantiates the main directions for strengthening the sustainability of local budget revenues through improving the efficiency of local taxes and fees, enhancing intergovernmental fiscal relations, and increasing financial autonomy of local authorities. The research findings have practical significance for the development of the local public finance system.

**Keywords:** local budget, budget revenues, revenue sustainability, local taxes, intergovernmental fiscal relations, financial autonomy.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat moliya tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan mahalliy byudjetlarning barqaror faoliyat yuritishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi hududiy infratuzilmani rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish hamda davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy majburiyatlarning to‘liq bajarilishida asosiy moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasining yetarli va barqaror shakllanishi, bir tomondan, hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirsa, ikkinchi tomondan, markaziy byudjetga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish manbalarini kengaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning undirilish samaradorligini oshirish hamda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh qilish, fiskal markazsizlashtirishni chuqurlashtirish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlash masalasi alohida e‘tiborni talab etadi. Chunki daromadlar barqarorligi hududlarning iqtisodiy salohiyati, soliq bazasining holati va moliyaviy boshqaruv samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlash yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlash masalalari iqtisodiy fanlarda, xususan, davlat moliyasi va hududiy moliya yo‘nalishlarida keng tadqiq etilgan. Mazkur masala bo‘yicha olimlar mahalliy byudjet daromadlarining manbalari, ularning barqarorligi va hududlar rivojlanishiga ta‘sirini turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilganlar.

O‘zbek olimlaridan A.X. Vahobov o‘zining “Davlat byudjeti va byudjet siyosati” asarida mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi hududlarning soliq salohiyati va byudjet siyosatining izchilligi bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, mahalliy soliqlar ulushining oshirilishi va ularni boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi [1]. Shuningdek, B.X. Xudoyberganov tadqiqotlarida mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi byudjetlararo transfertlar tizimi samaradorligiga bog‘liq ekani qayd etilib, hududlar o‘rtasidagi moliyaviy tengsizlikni kamaytirish zarurligi asoslab berilgan [2].

Rus olimlarining ilmiy ishlarida ham mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Jumladan, V.V. Kovalev mahalliy byudjetlar daromad bazasining mustahkamligi hududiy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va soliq tushumlarining barqarorligi bilan belgilanishini ko‘rsatib o‘tadi. Uning fikricha, byudjet daromadlarini diversifikatsiya qilish mahalliy moliya tizimining barqarorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi [3]. Shuningdek, L.I. Goncharenko o‘z ilmiy ishlarida fiskal markazsizlashtirish sharoitida mahalliy byudjetlarning

daromad mustaqilligini oshirish zarurligini ta’kidlab, bu jarayonda mahalliy soliqlarning roliga alohida e’tibor qaratadi [4].

Xorijiy, xususan, ingliz tilida ijod qilgan olimlarning tadqiqotlarida mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi davlat moliya tizimining umumiy samaradorligi bilan bog‘lab o‘rganiladi. R. Musgrave va P. Musgrave o‘zlarining klassik asarlarida fiskal federalizm nazariyasiga tayangan holda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalariga ega bo‘lishi hududiy rivojlanishning muhim sharti ekanini asoslab beradilar [5]. J. Stiglitz esa mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi davlat xizmatlari sifatini oshirish va hududiy tenglikni ta’minlashga xizmat qilishini ta’kidlaydi [6].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash masalasi nafaqat soliq tushumlarini oshirish, balki byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini kuchaytirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotda mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini o‘rganishda tizimli yondashuv asosida ilmiy izlanish olib borildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, shuningdek, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Mahalliy byudjet daromadlarining shakllanishi va dinamikasini baholashda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari mahalliy moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini baholashda hududlar kesimida daromad, xarajat va byudjetlararo transfertlar o‘rtasidagi nisbat muhim ahamiyat kasb etadi. 2025 yil I chorak ma’lumotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, respublika hududlarining aksariyatida mahalliy byudjet xarajatlari daromadlarga nisbatan yuqori bo‘lib, bu holat markaziy byudjetdan transfertlar ajratilishini taqozo etmoqda [7].

Quyidagi jadvalda 2025 yil I chorak holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha mahalliy byudjetlarning daromadlari, xarajatlari va transfertlar hajmi keltirilgan.

**1-jadval**

**2025 yil I chorakda hududlar bo‘yicha mahalliy byudjet ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m)**

<b>№</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>	<b>Transfert</b>
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	740,0	1 465,3	401,4
2	Andijon viloyati	1 056,3	1 713,8	414,0
3	Buxoro viloyati	933,0	1 294,8	99,7
4	Jizzax viloyati	554,5	970,9	242,1
5	Qashqadaryo viloyati	1 188,3	1 648,0	231,0
6	Navoiy viloyati	844,7	939,5	6,2
7	Namangan viloyati	876,2	1 510,0	529,2
8	Samarqand viloyati	1 366,6	1 868,1	308,8
9	Surxondaryo viloyati	778,9	1 420,9	446,9
10	Sirdaryo viloyati	410,0	708,7	179,9
11	Toshkent viloyati	1 706,7	1 821,1	17,6
12	Farg‘ona viloyati	417,3	2 245,3	448,1
13	Xorazm viloyati	777,7	1 203,1	262,8
14	Toshkent shahri	3 071,2	3 381,0	17,5
	<b>Jami</b>		<b>22 190,5</b>	<b>3 605,1</b>

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori daromad hajmi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, u 3 071,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, poytaxt hududi nisbatan past transfert ulushiga ega bo‘lib, bu uning yuqori soliq salohiyati va iqtisodiy faolligi bilan izohlanadi.

Toshkent viloyati va Navoiy viloyatida ham transfertlar hajmining pastligi ushbu hududlarning moliyaviy mustaqilligi nisbatan yuqori ekanini ko‘rsatadi [8].

Aksincha, Farg‘ona, Namangan, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kabi hududlarda transfertlar hajmi yuqori bo‘lib, bu hududlarning xarajatlari daromadlariga nisbatan sezilarli darajada ortiq ekanini anglatadi. Masalan, Farg‘ona viloyatida daromadlar 417,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, xarajatlar 2 245,3 mlrd so‘mga yetgan va natijada 448,1 mlrd so‘mlik transfert ajratilgan. Bu holat hududiy daromad bazasining yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, 2025 yil I chorakda respublika bo‘yicha mahalliy byudjet daromadlari 22 190,5 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, byudjetlararo transfertlar hajmi 3 605,1 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichlar mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi hududlar kesimida notekis ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirishda hududlarning soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va transfertlarga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tahlil va statistik ma‘lumotlar asosida aniqlanishicha, aksariyat hududlarda daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi tafovut mavjud bo‘lib, bu mahalliy byudjetlarning barqarorligini zaiflashtirmoqda. Shu bilan birga, mahalliy soliqlarni diversifikatsiya qilish, byudjetlararo transferlarni samarali yo‘lga qo‘yish, soliq ma‘muriyatini takomillashtirish hamda hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish orqali daromadlarni barqarorlashtirish mumkinligi aniqlandi.

Olingan natijalar mahalliy moliya tizimini rivojlantirish va hududlararo moliyaviy tenglikni ta‘minlashda amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot shuningdek, mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni belgilash va ularni ilmiy asosda tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy byudjet siyosatini rivojlantirish hududiy iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vahobov A.X. Davlat byudjeti va byudjet siyosati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
2. Xudoyberganov B.X. Mahalliy byudjetlar va ularning daromad bazasini mustahkamlash. – Toshkent: Moliya, 2021.
3. Ковалев В.В. Финансы. – Москва: Юрайт, 2020.
4. Гончаренко Л.И. Налоговая система и межбюджетные отношения. – Москва: ИНФРА-М, 2019.
5. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989.
6. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2000.
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Byudjet tizimi va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2022.